



**Iqlim o'zgarishi sharoitida O'zbekiston Respublikasida tabiiy resurslardan
foydalanishning huquqiy asoslari, qonunchilik tahlili**

Xamidullayev Boboxon Orifjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Tabiiy resurslar huquqi” yo'nalishi

magistratura bosqich talabasi

boboxontsul@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy ishda O'zbekiston Respublikasida iqlim o'zgarishining tabiiy resurslarga ta'siri va ularni boshqarishdagi huquqiy mexanizmlar tahlil qilingan. Xususan, ekologik qonunchilikning zamonaviy holati, yer, suv, yer osti boyliklari kabi resurslardan foydalanishga doir normativ-huquqiy hujjatlar hamda xalqaro tajriba bilan solishtirma tahlil o'tkazilgan. Shuningdek, mavjud qonunchilikda uchraydigan muammolar aniqlanib, ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Ishda O'zbekistonning iqlim siyosati, barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg'unlashgan yondashuvlar alohida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslar, huquqiy asoslar, ekologik qonunchilik, barqaror rivojlanish, O'zbekiston, normativ hujjatlar

Аннотация: В данной научной работе рассматривается воздействие изменения климата на природные ресурсы Узбекистана и анализируются правовые механизмы их регулирования. Особое внимание уделено действующему экологическому законодательству, нормативно-правовым актам, регулирующим использование земли, воды, недр, а также проводится сравнительный анализ с международной



практикой. Выявлены проблемные аспекты законодательства, предложены пути его совершенствования. Рассматриваются подходы к использованию ресурсов в контексте климатической политики Узбекистана и целей устойчивого развития.

Ключевые слова: изменение климата, природные ресурсы, правовые основы, экологическое законодательство, устойчивое развитие, Узбекистан, нормативные акты

Abstract: This research paper examines the impact of climate change on natural resources in Uzbekistan and analyzes the legal mechanisms for managing them. The study focuses on the current state of environmental legislation, normative documents related to the use of land, water, and subsoil, and provides a comparative analysis with international practices. It identifies legal gaps and proposes recommendations for improvement. Additionally, it highlights Uzbekistan's climate policy and its integration with sustainable development goals.

Keywords: climate change, natural resources, legal framework, environmental legislation, sustainable development, Uzbekistan, regulatory acts

Kirish. So‘nggi yillarda iqlim o‘zgarishi global darajada insoniyat hayotining barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Aholi sonining o‘sishi, urbanizatsiya, sanoatning kengayishi va texnogen omillar tabiiy resurslardan foydalanish bosimini oshirmoqda. Xususan, suv, yer, yer osti boyliklari kabi resurslarning cheklanganligi hamda ularni ratsional boshqarish ehtiyoji hozirgi davrning eng dolzarb muammolaridan biriga aylanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi hududining katta qismi qurg‘oqchil mintaqada joylashgani va iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlariga nisbatan sezuvchanligi sababli, mavjud tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish nafaqat iqtisodiy barqarorlik, balki ekologik



xavfsizlikning ham muhim omiliga aylangan. Shu munosabat bilan, ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida iqlim o'zgarishi sharoitida tabiiy resurslardan foydalanishga oid huquqiy asoslar, amaldagi qonunchilik bazasi va ularni rivojlantirish yo'nalishlari tahlil qilinadi. Tabiiy resurslardan foydalanish sohasidagi mavjud me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ularning iqlimga moslashuv darajasi, xalqaro standartlarga muvofiqligi, shuningdek, qonunchilikdagi bo'shliqlar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar maqolaning asosiy e'tibor markazida bo'ladi.

Bundan tashqari, iqlim siyosati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan barqaror rivojlanish maqsadlari, ekologik xavfsizlik, bioxilma-xillikni saqlab qolish masalalari ham yoritilib, ushbu sohadagi huquqiy islohotlarning ahamiyati huquqiy va siyosiy nuqtayi nazardan baholanadi.

Asosiy qism. O'zbekiston Respublikasida ekologik barqarorlikni ta'minlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. So'nggi yillarda bu sohada izchil islohotlar amalga oshirilayotgani bejiz emas. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, suv resurslaridan oqilona foydalanish kabi masalalar nafaqat ichki siyosiy kun tartibida, balki xalqaro darajadagi dolzarb masalalardan biri sifatida kun tartibiga chiqmoqda. Bu holat, ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida ham yaqqol aks etgan. U kishi ta'kidlaganidek: "Hammamiz ko'rib turibmiz - bugun insoniyat nihoyatda murakkab davrni boshdan kechirmoqda. Yer yuzida iqlimning keskin o'zgarishi, suv va boshqa tabiiy resurslar kamayishi bilan bog'liq muammolar katta xatarlarga aylanmoqda"¹. Ushbu bayonot aslida global ekologik muammolarning mahalliy siyosatga ham bevosita ta'siri borligini ko'rsatadi. Aholi sonining ko'payishi, sanoat rivojlanishi va urbanizatsiya jarayonlari bilan birga, tabiat resurslaridan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi <https://president.uz/oz/lists/view/5774>



ortiqcha foydalanish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu esa, tabiiy muvozanatning buzilishiga olib kelmoqda. Shu sababli, ushbu yoʻnalishda huquqiy asoslarni takomillashtirish va ekologik xavfsizlikni taʼminlashga qaratilgan siyosiy qarorlar qabul qilinayotgani bejiz emas. Xususan, 2022-yil 28-yanvarda Prezident tomonidan imzolangan PF-60-son Farmon bilan tasdiqlangan "2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da ekologiya alohida ustuvor yoʻnalish sifatida belgilab olingan. Strategiyaning 80-maqsadida atrof-muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik holatni yaxshilash kabi vazifalar belgilab qoʻyilgan². Bu kabi hujjatlarning amaliy hayotga tatbiq etilishi juda muhim. Chunki ekologik muammolar faqat davlat rahbarlari yoki siyosatchilar masalasi emas bu har bir fuqaroning hayoti, sogʻligʻi va kelajagi bilan bevosita bogʻliqdir. Ayniqsa, suv resurslari kabi hayotiy zarur boyliklardan oqilona foydalanish, ularni xalqaro darajada muvofiqlashtirish, qoʻshni davlatlar bilan suvdan foydalanish borasidagi huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ekologik sohadagi davlat siyosati faqatgina deklarativ emas, balki aniq huquqiy va institutsional choralar bilan taʼminlanishi kerak. Yangi qonunchilik tashabbuslari, ekologik monitoring tizimlari va xalqaro hamkorlikning kuchaytirilishi bu yoʻldagi asosiy omillardan boʻlib qolmoqda. Jamiyatning iqtisodiy negizi mavjud mulkchilik munosabatlariga asoslanadi. Shu sababli mulk nafaqat yuridik mazmunga, balki iqtisodiy maʼnoga ham ega. Iqtisodiy maʼnoda mulk insonlarning erk-irodasidan tashqari vujudga keladi. Yuridik munosabatlarda mulk qabul qilingan normalar orqali tartibga solinadi va ular mulk huquqi sifatida namoyon boʻladi. Kishilar mehnati bilan yaratilgan yoki tabiat tomonidan insonlarga oʻziga xos tarzda taqdim etilgan boyliklar har doim mulk boʻlib kelgan³. Tabiiy resurslarga nisbatan mulkchilikning obyekti tabiiy resurslar, yaʼni yer, suv, oʻrmon, oʻsimlik va hayvonot dunyosi, yerosti boyliklari hisoblanadi. Mulkchilik subyekti

²"2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi" <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

³ Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi: Darslik, I qism, I.B.Zokirov, maʼsullar muharrir, H.Rahmonqulov: Qayta va toʻldirilgan beshinchi nashr. – Toshkent.: TDYi bashriyoti, 2009. – 367 bet



tushunchasi bu o'z mulki ustidan egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqiga ega bo'lgan shaxs yoki tashkilotni anglatadi. O'zbekiston Respublikasida bu boradagi asosiy prinsip tabiiy resurslar umummilliy boylik hisoblanadi degan yondashuvdir. Bu prinsip Konstitutsiya darajasida mustahkamlangan bo'lib yuqorida keltirib o'tilganidek Konstitutsiya 68-moddasida tabiiy resurslar umummilliy boylik va ular davlat muhofazasidadir. Bundan kelib chiqib tabiiy resurslar bevosita xalq mulki ammo ularni muhofaza qilish va boshqarish vakolati davlatga yuklatilgan degna zamonaviy va muvozanatli yondashuvni anglatadi. Ya'ni, resurslardan foydalanish bo'yicha qarorlar qabul qilishda fuqarolarning ishtirokini kengaytirishga asos yaratadi. Masalan, xalqaro tajriba asosida ekologik muammolar bo'yicha jamoatchilik eshituvi, ochiq muhokamalar o'tkazilishi uchun asos mustahkamlandi. Umummilliy boylik maqomi resurslarga bo'lgan munosabatni nasldan-naslga o'tuvchi qadriyat sifatida mustahkamlaydi. Ya'ni, ular faqat iqtisodiy foyda emas, balki madaniy, ekologik va strategik ahamiyatga ega deb qaraladi. Normada tabiiy resurslar umummilliy boylik deb belgilangan. Bu degani, yer, suv, o'rmon, hayvonot dunyosi va yer osti boyliklari alohida bir shaxs yoki tashkilotga emas, balki butun xalqqa tegishli hisoblanadi. Ya'ni, bu resurslar millatning umumiy va ajralmas mulki sifatida qadrlanadi. Ular har bir fuqaro manfaatlari uchun zarur hisoblanadi va kelajak avlodlar uchun ham saqlanishi kerak bo'lgan boyliklardir. Moddada shuningdek, ulardan oqilona foydalanish zarurligi ta'kidlangan. Bu nafaqat huquq, balki burchni bildiradi. Ya'ni, resurslardan isrofgarchiliksiz, atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, ekologik va iqtisodiy jihatdan barqaror tarzda foydalanish talab etiladi. Bunda ham davlat, ham fuqarolar javobgar hisoblanadi. Oqilona foydalanmaslik, ayniqsa ekologik talafotlar, qonunbuzarlik sifatida javobgarlikka sabab bo'ladi. Ular davlat muhofazasidadir degani bu resurslar ustidan nazorat va ularni himoya qilish majburiyati bevosita davlatga yuklatilganini anglatadi. Bu muhofaza quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- atrof-muhitni ifloslanishdan himoya qilish;



- noqonuniy foydalanish yoki egallab olish holatlariga qarshi chora ko‘rish;
- resurslar ustidan monitoring yuritish va statistikani yuritish;
- tegishli qonunchilikni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Ya’ni, davlat ushbu resurslar bo‘yicha mas’ul kafolatlovchi subyekt hisoblanadi. Bu konstitutsiyaviy norma fuqarolarga mulkchilik huquqidan ko‘ra kengroq tushuncha umummilliy manfaat asosida yondashuvni taklif qiladi. Resurslar hech kimniki emas, lekin hammamizniki shuning uchun ham ularni oqilona ishlatish har birimizning burchimiz, davlat esa bu boradagi kafolatlovchi va tartibga soluvchi mexanizm sifatida ish yuritadi. Davlatning roli bu yerda mulkdor emas, balki kafolatlovchi, nazorat qiluvchi va muvofiqlashtiruvchi mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Boshqacha aytganda, davlat xalq nomidan tabiiy resurslarning barqaror boshqarilishini tashkil qiladi, manfaatlar muvozanatini saqlaydi hamda ekologik huquqbuzarliklarga qarshi kurashadi. Shu asosda xulosa qilish mumkinki, tabiiy resurslar hech kimniki emas, lekin hammamizniki. Ular davlat balansida yuritilishi mumkin, lekin bu ularning davlatga tegishli degani emas. Asosiy maqsad bu resurslardan foydalanishda jamiyatning har bir a’zosining mas’uliyatini kuchaytirish, ekologik madaniyatni oshirish va kelajak avlodlar manfaatini inobatga olgan holda barqarorlikni ta’minlashdan iborat.

Bugungi kunda ekologik barqarorlikni ta’minlash masalasi tobora dolzarb tus olmoqda va atrof-muhitning ifloslanishi, biologik resurslarning kamayib borishi va tabiiy xilma-xillikning yo‘qolib borishi insoniyat uchun jiddiy ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu holat nafaqat global miqyosda, balki O‘zbekiston sharoitida ham o‘z ta’sirini kuchaytirayotganini kuzatish mumkin. Ayniqsa, biologik resurslardan foydalanishga doir munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish masalasi e’tibordan chetda qolmasligi lozim. Ushbu yo‘nalishda davlat tomonidan ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi "2030-yilgacha bo‘lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish



konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-son Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi "2019–2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 484-sonli qarori ushbu sohadagi muhim vazifalarni belgilab beruvchi asosiy yuridik asoslar hisoblanadi. Bu kabi hujjatlar ekologiyani muhofaza qilishda davlat siyosatining izchil va tizimli yo'l tutayotganini ko'rsatadi. Biologik xilma-xillikni asrash nafaqat tabiatning muvozanatini saqlash uchun, balki ekologik xavfsizlikni ta'minlash va kelajak avlodlar uchun qulay yashash muhitini yaratish uchun ham nihoyatda muhimdir. Bunday strategiyalar orqali tabiat ne'matlarini himoya qilishga doir yondashuvlar faqatgina rasmiy darajada emas, balki amaliy choralarga tayanmoqda. Yuqorida keltirib o'tilgan 2030-yilgacha bo'lgan atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasida atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari buzilishlari profilaktikasi, ularni aniqlash va oldini olishning samarali mexanizmlarini joriy etish, respublika aholi punktlarining sanitariya va ekologik holati uchun davlat organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar rahbarlari va fuqarolarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish, shuningdek, 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarga erishishni ta'minlash maqsadida bir qancha chora-tadbirlar ishlab chiqilib "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi⁴. Mazkur Konsepsiyaning maqsad va vazifalari, yondashuvlari tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan bo'lib bunda aholining atrof muhit holati to'g'risida xabardorligini oshirish, buning uchun atrof-muhit va tabiiy resurslardan foydalanish holati to'g'risida milliy ma'ruzalarni muntazam tayyorlash va e'lon qilish va boshqa yo'llar bilan amalga oshirilishi belgilangan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmonida ham suv resurslarini tejash va ekologik xavf-xatarlarning oldini olish bo'yicha muhim vazifalar

⁴ 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi <https://lex.uz/docs/-4574008>



ilgari surilgan. Bu hujjat faqat suvni tejash masalasini emas, balki ekologik barqarorlikni ta'minlashda aholi va davlat o'rtasidagi o'zaro mas'uliyatni kuchaytirishga xizmat qilmoqda⁵. Aynan suv resurslari haqida gap ketganda, ularning strategik ahamiyatini chuqur anglash muhim. O'zbekistondan suv tanqisligi kuzatiladigan hududda har bir tomchi suvning qadri bor. Shuning uchun suvdan foydalanishda isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va qo'shni davlatlar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan 754-XII-son "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun 5-moddasi⁶, 1993-yil 6-may 837-XII-son bilan qabul qilingan "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonun 3-moddasi⁷, "Yer qa'ri to'g'risida"gi qonun 6-moddasi⁸, "O'simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi qonun 4-moddasi⁹, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi qonun 4-moddasi¹⁰, "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun 1-moddasi¹¹, "O'rmon to'g'risida"gi qonun 5-moddasi¹², shuningdek, Yer kodeksida 16-moddalarida¹³ ko'rsatilgan talablar tabiat resurslariga nisbatan belgilangan mulkchilikni qonun doirasida hal etishga qaratilgan. Shu bilan birga tabiiy resurslarga nisbatan mulkchilik huquqining ushbu belgilari ham mavjud.

1. tabiiy resurslarning ajralmasligi: ya'ni ma'lum bir tabiiy obyektni mulk sifatida boshqa bir obyektidan ajratib bo'lmazligi. Masalan, yerdan yerosti boyligini, suvdan baliqni ajratib bo'lmaydi. Zero, suv obyektlariga mulk huquqi baliqqa bo'lgan mulk huquqidan ajralmasdir;

⁵ "O'zbekiston - 2030" strategiyasi <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

⁶ "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun <https://lex.uz/uz/docs/-107115>

⁷ "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonun <https://lex.uz/docs/-12328>

⁸ "Yer qa'ri to'g'risida"gi qonun <http://lex.uz/docs/-7182161>

⁹ "O'simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi qonun <https://lex.uz/docs/-3030362>

¹⁰ "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi qonun <https://lex.uz/docs/-3029502>

¹¹ "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun <https://lex.uz/docs/-55561>

¹² "O'rmon to'g'risida"gi <https://lex.uz/docs/-3683529>

¹³ "Yer kodeksi" <https://lex.uz/docs/-152653>



2. *tabiiy resurslarning bebaholigi, qiymatining yo'qligi*: ayrim tabiiy obyektlar (tuproq, yer qa'ri, bog', sun'iy o'rmon, hayvonot va o'simliklar dunyosi) evolyutsion rivojlanish va kishilar mehnat faoliyatining mujassamlashgan holdagi natijasi ekanligi, ularning aniq bir qiymatini belgilab olish imkoni yo'qligi. Masalan, bir paytning o'zida yerning ham ko'chmas mulk, ham tabiiy obyektning ajralmas bir bo'lagi ekanligi;
3. *tabiiy resurslarning moddiyligi*: ya'ni o'zining obyektiv ko'rsatkichlariga binoan tabiiy resurslarni mulk sifatida o'zlashtirilmasligi yoki undira olmasligi. Masalan, atmosfera havosi, fazoviy elementlar, iqlim resurslari va hokazo¹⁴.

Tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqining xususiyatlarini inobatga olib taxminan quyidagi turlarga bo'lishimiz mumkin:

1. Umumsiyosiy tabiiy resurslar. Bu turdagi resurslarga geosiyosiy ahamiyatga ega bo'lgan resurslar kiradi: masalan, transchegaraviy daryolar (Amudaryo, Sirdaryo), yer osti boyliklari (neft, gaz) va boshqalar. Bunday resurslar ustidan mulk huquqi nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va diplomatik jihatdan ham ahamiyatlidir. Xususan, geosiyosiy yondashuvda tabiiy resurslar xalqaro siyosiy barqarorlik va davlatlararo kuchlar muvozanatini belgilaydi¹⁵.
2. Umumiyqtisodiy tabiiy resurslar. Sanoat, transport, energetika, kosmik tizimlar, yadro va shunga o'xshash boshqa iqtisodiy zarur obyektlar bilan band bo'lgan tabiiy obyektlar va yer uchastkalari. Bu resurslar bevosita iqtisodiy qadriyatga ega bo'lib, ularni boshqarish iqtisodiy siyosatning muhim tarkibiy qismidir. Masalan, foydali qazilmalar, o'rmonlar, yer va suv resurslari iqtisodiy faoliyat uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tabiiy kapital nazariyasiga ko'ra, bu resurslar barqaror rivojlanishning ajralmas qismidir¹⁶.

¹⁴ Ekologiya huquqi: o'quv qo'llanma / Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li – T.: TDYU nashriyoti, 2025, 18-bet

¹⁵ Kissinger, H. (1994). *Diplomacy*. Simon & Schuster.

¹⁶ Costanza, R., Daly, H. E., & Bartholomew, J. A. (1991). *Goals, agenda and policy recommendations for ecological economics*. *Ecological Economics*, 3(1), 1–7. [https://doi.org/10.1016/0921-8009\(91\)90023-M](https://doi.org/10.1016/0921-8009(91)90023-M)



3. Umumekologik tabiiy resurslar. Atmosfera, iqlim, biologik xilma-xillik va boshqa ekologik resurslar butun insoniyatga tegishlidir. Bunday resurslar ko‘pincha "umumiy foyda" (common-pool resources) hisoblanadi. Elinor Ostrom ushbu resurslarni jamoaviy boshqaruv asosida samarali boshqarish mumkinligini ilmiy asosda isbotlagan¹⁷.

Tabiiy resurslardan foydalanish huquqining mazmuni, o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritilganda mazkur huquqning vujudga kelishi, cheklanishi yoki tugatilishi masalalari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ana shunday holatlar “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun 23-moddasi, ya‘ni tabiiy resurslardan foydalanish talablarini muttasil buzadigan foydalanuvchi tabiiy resurslardan foydalanish huquqidan mahrum etilishi mumkinligi¹⁸, “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi qonun 34-moddasi, aholi sog‘lig‘ini saqlash maqsadini, davlatning boshqa manfaatlarini, shuningdek o‘zga suvdan foydalanuvchilar va suv iste‘molchilarining manfaatlarini ko‘zlab, suvdan foydalanuvchilar va suv iste‘molchilarining huquqlari cheklanishi mumkin. Bunda aholining ichimlik va maishiy ehtiyojlari uchun suv obyektlaridan foydalanish sharoitlari yomonlashmasligi lozimligi¹⁹, “Yer kodeksi” 42-moddasiga binoan esa yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkalari ijarachilari va mulkdorlarining huquqlari davlat manfaatlarini, atrof muhitni muhofaza qilish, muhandislik kommunikatsiyalari qurish va ulardan foydalanish manfaatlarini, boshqa yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkalari ijarachilari va mulkdorlarining manfaatlarini, shuningdek fuqarolar xavfsizligini ko‘zlab faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda cheklanishi mumkinligi belgilangan²⁰. Tabiiy resurslardan foydalanish huquqi doimo bir xil shaklda bo‘lmaydi. Unga bo‘lgan yondashuv va mazmuniy talqinlar vaqt o‘tishi bilan, shuningdek, resursdan foydalanish shartlari yoki hududning statusi o‘zgarganda o‘zgarib boradi. Masalan, ayrim tabiiy ob‘ektlar bir toifadan boshqa toifaga o‘tganda yoki ularni boshqarish rejimi yangilanganda, foydalanish huquqining mazmuni ham yangicha ko‘rinish oladi. Shu bilan

¹⁷ Ostrom, E. (1990). *Governing the commons: The evolution of institutions for collective action*.

¹⁸ “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun <https://lex.uz/uz/docs/-107115#-107234>

¹⁹ “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi qonun <https://lex.uz/docs/-12328>

²⁰ “Yer kodeksi” <https://lex.uz/docs/-152653>



birga, ushbu huquqni vaqtincha to'xtatish yoki umuman bekor qilish ehtimoli ham amaldagi qonunlarda o'z aksini topgan. Masalan, suvdan foydalanish huquqining bekor qilinishi "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonunning 37-moddasida ko'rsatilgan bo'lsa, yer uchastkalari bilan bog'liq huquqlarning tugatilishi yoki bekor qilinishi esa O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 36-moddasida belgilab berilgan. Shunga o'xshash holatlar boshqa qonunchilik hujjatlarida ham qayd etilgan. Tabiiy resurslarga bo'lgan mulk huquqi, ayni paytda, bu resurslardan foydalanayotgan subyektlarning huquq va majburiyatlari bilan bevosita bog'liq. Ya'ni, yer egasi, suvdan foydalanuvchi yoki o'rmonda faoliyat yurituvchi har bir shaxs yoki tashkilot o'z huquqlari doirasida harakat qilishi bilan birga, o'z zimmasiga yuklangan majburiyatlarni ham bilishi va ularga qat'iy amal qilishi kerak. Aynan shu yondashuv orqali resurslardan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish va ekologik qonunchilikka rioya qilish kafolatlanadi. Mazkur tamoyillar amaldagi qonunlarda batafsil yoritilgan. Masalan, Yer kodeksining 39-42-moddalari yer egasi, foydalanuvchi, ijarachi hamda yer uchastkasi mulkdorining qanday huquqlarga ega ekani va qanday majburiyatlarni bajarishi lozimligini aniq ko'rsatib beradi. Xuddi shuningdek, "O'rmon to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasida o'rmonda doimiy faoliyat yurituvchilarning, 22-moddasida esa vaqtinchalik foydalanuvchilarning huquqiy maqomi va majburiyatlari belgilangan. Yuqorida sanab o'tilgan barcha qonuniy mexanizmlar nafaqat tabiiy resurslardan foydalanuvchilar huquqini aniqlashtiradi, balki ekologik xavfsizlikni ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va tabiiy boyliklarni kelajak avlodlar uchun saqlab qolish yo'lida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ekologik xavfsizlik va biologik resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi huquqiy tartibotlar — bu nafaqat huquqiy masala, balki jamiyat va davlat barqarorligi, kelajak avlod salomatligi va yashash sifati bilan bog'liq strategik ustuvorlikdir. Mazkur bobda o'rganilgan normativ-huquqiy hujjatlar va davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari aynan shunday yondashuvning yaqqol namunasidir.